

SO‘FI OLLOYOR VA HUVAYDO MUNOJOT RUBOIYLARI G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Murodova Barno Kamalxodja qizi,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti*

G-mail: barnomurodova43@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Huvaydo va So‘fi Olloyor ijodidagi munojot tipidagi ruboiylarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Ruboiylarda ilohiy ishq, tavba, ojizlik masalari o‘rganildi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik va matniy tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijada ikki shoir munojot ruboiylarida tasavvufiy tafakkurning o‘ziga xos poetik ifodasi mavjudligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: munojot, ruboiy, tavba, ishq, zikr, poetika, tasavvuf.

Аннотация. В данной статье анализируются идейно-художественные особенности рубаи-мунаджат в творчестве Хувайдо и Суфи Оллоёра. В рубаи исследуются вопросы божественной любви, покаяния и человеческой слабости. В исследовании использованы сравнительно-типологический и текстологический методы анализа. В результате установлено, что в рубаи-мунаджат обоих поэтов присутствует своеобразное поэтическое выражение суфийского мышления.

Ключевые слова: мунаджат, рубаи, покаяние, любовь, зикр, поэтика, суфизм.

Annotatsion. This article analyzes the ideological and artistic features of the munajat-type rubaiyats of the works of Huvaydo and Sufi Olloyor. The issues of divine love, repentance, and helplessness were studied in the rubaiyats. The research used comparative-typological and textual analysis methods. As a result, it was determined that the munajat rubaiyats of the two poets contain a unique poetic expression of mystical thought.

Keywords: supplication, rubai, repentance, love, remembrance, poetics, mysticism.

Kirish. O‘zbek mumtoz adabiyotida munojot ruhidagi asarlar tasavvufiy tafakkurning muhim ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ruboiy janrida yaratilgan munojotlar shoirning ichki ruhiy olami, ilohiy ishqqa munosabati hamda banda va Yaratgan o‘rtasidagi ma‘naviy bog‘lanishni ixcham poetik shaklda ifodalashi bilan ahamiyatlidir. Bu jihatdan So‘fi Olloyor va Xojanazar Huvaydo ijodi alohida e‘tiborga loyiq.

Adabiyotlar tahlili. Arab tilidagi “najv” so‘zining o‘zagidan yasalgan munojot so‘zi “pichirlashmoq, sirlashmoq”, mumtoz adabiyot lug‘atlarida esa “Allohga tavallo qilmoq, undan najot so‘rab iltijo qilmoq” singari ma‘nolarni anglatishi bildirilgan. Uning o‘ziga xos tarixi mavjud. So‘fiylik falsafasining ilk davrlarida (VIII-IX asrlar) zohidlar hayotida ibodat tushunchasi shunchaki rasmiy amallarni bajarishdan iborat bo‘lmay, balki Alloh bilan ruhiy muloqot — munojot darajasiga ko‘tarilgan edi. Bu davrning eng yorqin siymolaridan biri Robiya Adaviyya bo‘lib, uning qarashlarida ilohiy ishqning eng sof ko‘rinishi namoyon bo‘ladi. Uning duolarida ta‘magirlik va qo‘rquvdan xoli bo‘lgan Tangriga intilish asosiy o‘rin tutadi. Robiya Haqqa yuzlanar ekan, jannat ilinji yoki do‘zax vahimasi bilan emas, balki faqat va faqat Ilohning O‘zi uchun topinishni so‘raydi. Bu esa islom ma‘rifatida maqsad va vosita tushunchalarini tubdan o‘zgartirgan qarashdir. Manbalarda, xususan “Tazkirat ul-avliyo” tazkirasida bayon etilishicha, bunday samimiy

ruhiy aloqa oddiy shakliy ibodatlardan ustun qo'yilgan. Mashhur obid Ibrohim Adhamning 14 yil davomida mashaqqatli namozlar bilan Ka'baga yetib kelishi va u yerda Ka'bani topolmay hayratda qolishi voqeasi ramziy ma'noga ega. Sababi so'ralganda, uying Robiya ziyoratiga ketgani ma'lum bo'ladi. Bu ikki buyuk siymo uchrashganda Robiya o'zining ustunligini birgina jumla bilan ifodalaydi: Ibrohim Adham yo'lni namoz bilan bosib o'tgan bo'lsa, Robiya uni ichki yolvorish, ya'ni munojot bilan zabt etgan edi. Bunday chuqur falsafiy va ruhiy tajribalar keyinchalik islom sharqi adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Natijada IX-X asrlardan boshlab munojot badiiy ijodning mustaqil turiga aylanib, shoirlar tomonidan maxsus she'riy duolar bitila boshlandi. Vaqt o'tishi bilan esa har qanday jiddiy asarni munojot bilan boshlash yoki yakunlash badiiy ijodning ajralmas an'anasiga aylandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda So'fi Olloyor va Xuvaydo ijodidagi munojot ruboiylarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini yoritishda bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi.

Avvalo, qiyosiy-tipologik metod asosida ikki shoir ijodidagi munojot ruboiylarining umumiy va farqli jihatlari aniqlanib, tasavvufiy motivlar va badiiy ifoda vositalaridagi o'xshashlik hamda tafovutlar tahlil qilindi.

Shuningdek, matniy (tekstologik) tahlil metodi yordamida ruboiylarning asl matni o'rganilib, ularning mazmuniy qatlamlari, g'oyaviy yo'nalishi va poetik strukturasi e'tibor qaratildi.

Tadqiqot jarayonida lingvopoetik tahlil metodi ham qo'llanilib, asarlardagi badiiy san'atlar, metaforik ifodalar, istiora va talmeh kabi vositalarning funksional xususiyatlari aniqlandi.

Bundan tashqari, tasavvufiy-hermenevtik yondashuv orqali matnlarning ma'naviy-falsafiy mazmuni, ilohiy ishq, tavba va ojizlik konseptlarining talqini ochib berildi.

Ushbu metodlar uyg'unligi tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va xulosalarning ishonchliligini ta'minladi.

Tahlillar va natijalar. O'zbek mumtoz adabiyotida munojotning ilk ko'rinishlari Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida uchraydi deb olimlar ta'kidlashadi. Asar muqaddimasidagi hamd qismida munojot ruhida baytlar joy olgan. Munojot mustaqil asar sifatida birinchi marta Xoja Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" to'plamida ifodalangan.

Munojot ayladi Miskin Xoja Ahmad,

Ilohi, qil hama bandangni rahmat.

Shuningdek, So'fi Olloyorning mashhur "Sabot ul-ojizin" asarining yakuniy qismida ham yaqqol ko'rinadi. Asarning "Ruboiyyoti turki bo' tariqi munojot" deb nomlangan bobida ijodkor ruboiy janri orqali (18 ta) Haqqa murojaat qiladi.

Xoliqo qoyilman o'z nuqsonima

Ko'b jaf o'zumni jonima.

Zoti pokingdin inoyat bo'lmasa

Hech ishomgim yo'q amal qilg'onima.

Lirik qahramon o'z xatolarini chuqur his etgan muslim sifatida gavdalanadi va uning fikrlari Muqaddas Kitob oyatlari bilan hamohanglik kasb etadi. Insoniy qusurlarga iqrorklik va qiyomat kuni hisob-kitobining oson bo'lishini (nomai a'molning o'ng tomondan berilishini) so'rash islomiy tushunchalar bilan go'zal tarzda uyg'unlashtirilgan.

Ushbu an'ana XVIII asrda yashab ijod qilgan taniqli mutasavvuf shoir Xo'janazar Huvaydo asarlarida ham yangicha ko'rinishda davom ettirildi. Huvaydo o'zining ichki kechinmalarini maslakdoshi kabi munojot ruboiylar orqali namoyish etadi (16 ta). Uning she'rlarida xuddi o'zidan oldingi o'tgan so'fiy ijodkorlar kabi qalbni g'ofillikdan uyg'otish, nafs balosidan uzoq bo'lish va bu o'tkinchi dunyo lazzatlariga aldanmaslik g'oyalari markaziy o'rinda turadi.

Xoliqo, keldim sanga aylab umid,

Dargahingdan qilmag'aysan noumid.

Garchi bandang munda bo'lsa q ro'siyoh

Lutf aylab, anda qil vajhim safid.

Ko'pgina shoirlar ijodini kuzatar ekanmiz, munojot yoziish asosan diniy-ma'rifiy mazmunli she'rlar yozgan ijodkorlarda uchraydi. Chunki munojotlar shoirning ichki holati, dunyoqarashi bilan bog'liq. Huvaydo ijodiga xos bo'lgan kamtarlik va tavozu' ushbu munojot-ruboiyda yaqqol ko'rinadi. Shoir o'zini "yuzi qora" deb atash orqali barcha gunohlarini e'tirof etadi va yagona najotni faqat Allohning "lutf"ida ko'radi. Quyida har ikki ijodkorning ba'zi ijod namunalarini qiyosiy kontekstda tahlil qilamiz:

So'fi Olloyor ruboiylari	Huvaydo ruboiylari	Qiyosiy xulosa
Xoliqo, qoilman o'z nuqsonima, Ko'b jafo qildim o'zimning jonima. Zoti pokingdan inoyat bo'lmasa, Hech ishonchim yo'q amal qilg'onima.	Xoliqo, jabr ayladim o'z jonima, Qo'ymadim toat taomin xonima. Harna ish qildim, bari bo'ldi riyo, E'timodim yo'q amal qilg'onima.	Huvaydo Olloyor boshlagan iqrorklik va tazarru' motivini davom ettirib, uni "riyo" tushunchasi bilan chuqurlashtirgan. Tasavvufda amaldagi riyo — eng katta ofat bo'lib, Huvaydo lirik qahramonining o'zini ayblash darajasi ancha yuqori.
Xoliqo, to'kdum ibodat tosini, San tuzarsan bandaning kamkosini. Qullaring bulg'ansa isyon loyig'a, Oquzarsan mag'firat daryosini.	Xoliqo, to'ktum ibodat jomini Puxta qil bandangni kori jomini. San karamlik podshosan, man gado, Aylagil huru qusur in'omini.	So'fi Olloyor qalbning ruhiy poklanishi (mag'firat daryosi) va tavbaga urg'u bersa, Huvaydo foniylik, fano va o'zining "gado"lik holatini ta'kidlab, oxirat mukofotlariga umid bildiradi.

<p>Xoliqo, xayf otdi mohu solimiz Bo‘lmadi nofe’ ayolu molimiz. San hisobimizni oson etmasang Rozi mahsharda na kechgay holimiz.</p>	<p>Xoliqo, hayf o‘tti mendin solu moh, Harna ish qildim bari bo‘ldi gunoh. Tongla rasvo qilg‘oli el oldida, Qo‘l oyog‘im so‘zlatib, qilma guvoh.</p>	<p>So‘fi Ollohyor masalani umumiy insoniy munosabatlar va shariat mezonlari doirasida muxtasar bayon etgan bo‘lsa, Huvaydo qiyomat dahshati va qalb kechinmalarini o‘z shaxsi misolida chuqurroq badiiy bo‘yoqlarda, yorqin vizual obrazlar (qo‘l va oyoqning so‘zlanishi) orqali ochib bergan.</p>
<p>Xoliqo, qildim gunohi beaded Jon berur holatda San bergilsan madad. Nafsi shayton ilgidin qutqarmasang, Bo‘ldi mushkil holimizg‘a, yo Ahad.</p>	<p>Xoliqo, sandin tilarman ko‘p madad, Ham tirikda, jon chiqarda yo ahad. San agar holimga homiy bo‘lmasang, Ozg‘urur yo‘ldin mani shaytoni bad.</p>	<p>Olloyor asosan jon taslim qilish (naze‘) pallasidagi imon salomatligi va xavf motivini ilgari suradi. Huvaydo esa muammoni kengaytirib, ham tiriklikda, ham o‘limda nafs g‘alayonidan panoh so‘raydi.</p>
<p>Xoliqo, diydamga ashki jori ber, Kongluma doim muhabbat yori ber. Obi kavsardin mani serob etib Ham yana ko‘fruk o‘tarda yori ber.</p>	<p>Xoliqo, ikki ko‘zum pur ob qil, Kechalar to subhidam bexob qil. Tizga tushg‘anda suvsab mahsharda til, Obi javsardin berib, serob qil.</p>	<p>So‘fi Olloyorda lirik ifoda biroz vazmin va bayonchilik xarakterida. Huvaydoda esa tasavvufiy jizb, bedorlik va oshiqlik pafosi baland bo‘lib, mahshargoh daxshati insoniy detal (suvsagan til) orqali emotsional ifodalangan.</p>

1. TASAVVUFIIY MOTIVLAR VA KONSEPTUAL TAHLIL

Har ikki ijodkorning munojot-ruboiylarida tariqatning eng boshlang‘ich va muhim bosqichlari bo‘lmish — tavba, tazarru', inobat (Allohga qaytish) hamda xavf va rajo (qo‘rqinch va umid) motivlari markazga ko‘tarilgan. Biroq, matnlar chuqurroq qiyoslanganda, bu motivlarning talqinida sezilarli evolutsion farq ko‘zga tashlanadi.

A) O‘zlikni anglash va amalga ishonmaslik motivi: — So‘fi Olloyor o‘z tasavvufiy qarashlarining asosi bo‘lgan "komil ishonch faqat Yaratganning fazli va marhamati bilan bo‘ladi" degan oliy haqiqatni ilgari suradi. U o‘zining zohiriy amallariga suyanib qolishdan qochadi: "Hech ishonchim yo‘q amal qilg‘onima". Shoir shariat mezonlaridan kelib chiqib, bandaning mukammal emasligini, uning najoti faqat Ilohiy inoyatga bog‘liqligini vazminlik bilan e‘tirof etadi.

Huvaydo talqinida: Xojanazar Huvaydo esa ushbu motivni yanada keskinlashtiradi va lirik fojia darajasiga ko‘taradi. So‘fi Olloyor shunchaki amalimga ishonchim yo‘q desa, Huvaydo o‘z amalini tub-tubidan tanqid ostiga oladi: "Harna ish qildim, bari bo‘ldi riyo". Tasavvuf falsafasida amaldagi riyo (xo‘jako‘rsinlik) — qalbni o‘ldiruvchi eng katta ofatdir. Huvaydo o‘zini shafqatsiz taftish qilish orqali solikning nafs qarshisidagi ojizligini yorqinroq ko‘rsatadi.

B) Nafs, Shayton balosi va Jon taslim qilish ziddiyati: — So‘fi Olloyor solikning so‘nggi nafasda imon salomatligi bilan ketishi, ya'ni tasavvufdagi naze' (jon berish) holati tashvishini birinchi o‘ringa qo‘yadi. "Nafsi shayton ilgidin qutqarmasang, Bo‘ldi mushkil holimizg‘a, yo Ahad" misralarida inson umr bo‘yi yig‘gan ma'naviy xazinasini so‘nggi pallada shayton tomonidan o‘g‘irlanishi xavfi kuchli ochib berilgan.

Huvaydo talqinida: Huvaydo esa shaytoniy nafs xavfini faqat o‘lim lahzasiga bog‘lab qo‘ymaydi, balki uni butun tiriklik pallasiga yoyadi: "Ham tirikda, jon chiqarda yo Ahad". U nafaqat o‘lim oldida, balki hayotning har bir soniyasida nafs va shayton tuzog‘idan cho‘chiydi, doimiy hushyorlik (muhasaba) maqomida turadi.

2. POETIK VOSITALARNING BADIY VAZIFASI

Shoirlar o‘zlarining tasavvufiy-falsafiy konsepsiyalarini kitobxon qalbiga yetkazish uchun o‘zbek she'riyatining boy poetik an'anaviy tasvir vositalari va badiiy san'atlardan yuksak mahorat bilan foydalanganlar:

1. Tazod san'ati: Har ikki ijodkor ijodida bu san'at yetakchi o‘rin tutadi. So‘fi Olloyor ijodida "Isyon loyig‘a" (gunoh botqog‘i) va "Mag‘firat daryosi" (Allohning cheksiz kechirim ummoni) tushunchalari qarshilantiriladi. Bu yerda "loy" (zamin, pastlik, kirlik) va "daryo" (samoviy poklik, kenglik) kontrastida Ilohiy marhamatning naqadar ulug‘ligi ko‘rsatilgan. Huvaydo esa bu san'atni ijtimoiy-tasavvufiy planga ko‘chiradi: "San karamlik podshosan, man gado". Shoir podsho va gado obrazlari orqali Xoliq va banda o‘rtasidagi masofani, bandaning mutloq muhtojligini ifodalaydi.

2. Istiora va Majoz : So‘fi Olloyordagi "ibodat tosini to‘kmak" iborasi o‘z amallarini asray olmaslik, xatoga yo‘l qo‘yishni anglatuvchi chuqur tasavvufiy istioradir. Har ikki shoirda uchraydigan "Diydamga ashki jori ber" (Olloyor) va "Ikki ko‘zum pur ob qil" (Huvaydo) so‘rovlari — tasavvufdagi yig‘i (tazarru) parhezi bo‘lib, qalbni poklashning eng ishonchli vositasi hisoblanadi. Huvaydoning "Kechalar to subhidam bexob qil" satri esa tariqatdagi tungi bedorlik (tahajjud va zikr) an'anasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishoradir.

3. Talmeh san'ati : So‘fi Olloyorda "Obi kavsardin mani serob etib, Ham yana ko‘fruk o‘tarda yori ber" misralari lirik qahramonning oxirat tashvishini (Sirot ko‘prigidan o‘tish pallasini) ko‘rsatsa, Huvaydo bu tasvirni yanada jonlantirib, mahshargohdagi jazirama, dahshat va tashnalik holatini inson jismi darajasida his ettira oladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, So‘fi Olloyor va Xoja Nazar Huvaydo munajotlari o‘zbek tasavvufiy she'riyatida uzviy an'anaviylik va ijodiy vorisiylikni tashkil etadi. Har ikki shoir ham bir xil poetik qolip (vazn, qofiya, radif) doirasida fikr yuritsa-da, ularning dunyoqarashida ma'lum evolutsion farq seziladi. Agar So‘fi Olloyor didaktik-shariat mezonlaridan kelib chiqib, bandaning kamchiliklarini vazminlik va ehtiyotkorlik bilan bayon etgan bo‘lsa, Huvaydo tasavvufning lirik-ishqiy yo‘nalishiga sodiq qolgan holda o‘z "Men"ini shafqatsiz tahlil qiladi, kechalarni bedor o‘tkazishga intilib, tazarru' ohangini fojiaiy-g‘amgin darajaga ko‘taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сўфи Оллоёр. Сабот ул-ожизин – Samarqand, 2018. Б. 527.
2. Хўжаназар Хувайдо. Девон – Т.: 2017. Б. 302.
3. Носиров О, Жалолов С, Зиёвиддинов М, Ўзбек классик шеърляти жанрляри – Т.: 1979.
4. Яссавий А. Девони ҳикмат. – Тошкент: Ғафур Ғулум, 1992. – Б. 208.a
5. Ochilov E. Ruboiy tarjimasida shakl va mazmun birligi: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1994.
6. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – (Poetic arts and classical coconua). Sharq, Tashkent, 1998. B. 210.
7. Erkaboyeva N. Alisher Navoiy ijodida munojot. Filol. fan. nomz. diss. avtoref. –Toshkent 2008.

